Republican Scientific and Practical Medical

CAUSES OF OBINCOPAL SYNDROME AND THE ROLE OF PARADOXICAL EMBOLISM IN THE OCCUPATION OF SYNCOPAL CASES IN PATIENTS WITH CONGENITAL HEART DEVICES**ANNOTATION**

The study of the causes and mechanisms of development of syncope, algorithms for their diagnosis and treatment remains a problematic situation in the healthcare system of our country, including throughout the world, and there are a number of shortcomings in the organization of emergency medical care for such patients. Studying the consequences of paradoxical embolism in patients with congenital heart defects has become an urgent problem, since these patients have a high risk of developing cardiovascular, cerebrovascular and peripheral complications. The article is devoted to the analysis of cases of syncope in patients with ischemic stroke, thrombosis of internal and peripheral arteries, congenital heart defects and deep vein thrombosis. The article discusses the mechanisms of transition of a blood clot or any embolism formed in the venous vessels of the body into the large circulatory system, including what clinical conditions arise depending on which organ and tissue is damaged, diagnostic and treatment algorithms, and assessment of syncope. In a variety of settings, from non-invasive ultrasound to invasive tests, their advantages and limitations are discussed, which may contribute to subsequent effective treatment of this patient population. Therapeutic strategies and perspectives for the treatment of syncope, including pharmacological and non-pharmacological approaches, with particular emphasis on the prevention of complications of vascular thrombosis and embolism. The conclusion emphasizes that additional research is needed to understand the development of paradoxical embolism in patients with syncope, congenital heart disease and deep vein thrombosis. It is important to develop targeted therapeutic strategies that can reduce the negative consequences of paradoxical embolism and improve the prognosis for this vulnerable group of patients.

Key words: Paradoxical embolism, congenital heart defects, deep vein thrombosis, stroke, thrombosis of the arteries of internal organs.

Kenjaev S.R.

Respublika ixtisoslashgan terapiya va tibbiyot reabilitatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston.

Latipov F.F.

Respublika ixtisoslashgan terapiya va tibbiyot reabilitatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston.

Ubaydullayeva Sh.M.

Respublika ixtisoslashgan terapiya va tibbiyot reabilitatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston.

SINKOPE SINDROMINING RIVOJLANISH SABABLARI VA YURAK TUG'MA NUQSONLARI BO'LGAN BEMORLARDA SINKOPAL HOLATLARNING YUZAGA KELISHIDA PARADOKSAL EMBOLIYALARNING O'RNI**ANNOTATSIYA**

Sinkopal holatlarning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish mexanizmlarini o'rganish, uning diagnostika va davolash algoritmlari butun dunyoda jumladan, yurtimiz sog'liqni saqlash tizimida muammoli vaziyatligicha qolmoqda va bunday bemorlarga shoshilinch tibbiy yordamni tashkil etishda bir qancha kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, tug'ma yurak nuqsonlari bilan kasallangan bemorlarda paradoksal emboliyalar oqibatlarini o'rganish dolzarb masalaga aylandi, chunki ushbu bemorlarda yurak-qon tomir, bosh miya va periferik asoratlar rivojlanish xavfi yuqori. Ushbu maqola ishemiik insult, ichki va periferik organ arteriyalari trombozi kabi kasalliklarni boshdan kechirgan, tug'ma yurak nuqsonlari va chuqur venalar trombozi bilan kasallangan bemorlarda sinkopal holatlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada organizm venoz tomirlarida hosil bo'lgan tromb yoki har qanday embolning katta qon aylanish tizimiga o'tish mexanizmlari, jumladan, qaysi organ va to'qima zararlanganligiga qarab qanday klinik holatlar yuzaga kelishi, tashxislash va davolash algoritmlari ko'rib chiqiladi, sinkopal holatlarni baholash usullari, noinvaziv ultratovush tekshiruvlaridan invaziv testlarga, ularning afzalliklari va cheklovlari muhokama qilinadi, bu esa ushbu toifadagi bemorlarni keyinchalik samarali davolashga hissa qo'shishi mumkin. Sinkopal holatlarni boshqarish bo'yicha terapevtik strategiyalar va istiqbol, shu jumladan farmakologik va nofarmakologik yondashuvlar, qon-tomirlar trombozi va emboliyasi asoratlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Xulosa qismida sinkope sindromining yurak tug'ma nuqsonlari va chuqur venalar trombozi bilan kasallangan bemorlarda paradoksal emboliyalarning rivojlanishini tushunish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarurligi ta'kidlab o'tilgan. Paradoksal emboliyalar salbiy oqibatlarini kamaytirish va ushbu zaif guruh bemorlari uchun prognozni yaxshilashga qodir bo'lgan maqsadli terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Paradoksal emboliya, tug'ma yurak nuqsonlari, chuqur venalar trombozi, insult, ichki organ arteriyalari trombozi.

Sinkope – bu bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi oqibatida yuzaga keladigan qisqa muddatli hushdan ketish hodisasidir. Bu holat kimyoviy yoki elektrik kardioversiyaga ehtiyoj sezmasdan darhol, o'z-o'zidan tiklanishi bilan namoyon bo'ladi va miya gipoperfuziyasidan keyingi ikkinchi darajali holat bo'lib, 30 soniyagacha davom etishi mumkin (o'rtacha 12 soniya). Sinkope keng tarqalgan tibbiy muammo bo'lib, uning uchrash darajasi populyatsiyaning 15%i dan 39%i gacha bo'lib, ikkala jinsda ham uchrash chastota bir xil. Qaytalanish darajasi 35% ni, jismoniy

shikastlanish darajasi esa 29% ni tashkil qiladi. Sinkopening sabablari orasida *neyrokardiogen* yoki *vazovagal sinkope* deb nomlanuvchi turi eng keng tarqalgan bo'lib, sabablarning 1/3 qismini tashkil qiladi [1]. Sinkopening boshqa sabablari ham mavjud. Ular ortostatik gipotenziya, karotid sinusning yuqori sezuvchanligi, nevrologik, endokrinologik sabablar va ruhiy kasalliklardir. Sinkopening bu turlari o'lim sabablarida kam foizni tashkil etganligi uchun ular qo'shimcha guruhlariga kiritilgan.

Hushdan ketish (sinkope)ning umumiy sabablari.

Patofiziologik turlari	<i>Sabablar:</i>
Reflektor sinkope	<i>Vazovagal, situatsion sinkope, ortostatik gipotenziya, karotid sinusning yuqori sezuvchanligi.</i>
Yurakka bog'liq sinkope	<i>Yurakning struktur kasalliklari, bradiaritmia, taxiaritmiyalari.</i>
Nevrologik sinkope	<i>Serebrovaskular buzulishlar, vegetativ disfunktsiya, "steal" sindrom.</i>
Boshqa sabablar	<i>Endokrinologik sabablar, ruhiy kasalliklar.</i>

Sinkopal holatning kechishi va prognozi uning asosiy etiologiyasiga bog'liq bo'lib bemorda yurak kasalliklarining mavjudligi va og'irligi bilan belgilanadi. Agar sinkopening asosiy sababi yurakdagi muammo bo'lsa, o'lim darajasi 18-33% gacha, yoki uning sababi yurakdan tashqari a'zolar bo'lsa 0-12% gacha bo'lishi mumkin. Shunday qilib, kasallanish va o'limni kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun xavfning asosiy sababini aniqlash juda muhimdir. Sinkope tashxisini bemorlarning 50 foizida elektrokardiogramma tekshiruvini asosida qo'yish mumkin [2]. Bundan tashqari bemorning klinik anamnezini mukammal tarzda o'rganish lozim. Masalan har bir epizoddan oldinga va keyingi bemorning ahvoli, qanday simptomlar kuzatilganligi (ko'ngil aynashi, rangparlik, sovuq ter bosishi, yurak urishi, sianoz, nafas siqishi, ko'krak qafasida og'riq, jarohatlar va h.k.) Hushidan ketish sababini aniqlash uchun shaxsiy va oilaviy anamnez ham muhimdir [3].

Vazovagal sinkope. Bu turdagi sinkopening keltirib chiqaruvchi omillari - uzoq vaqt o'tirish yoki turish, stress, kuchli og'riq, yuqori tana harorati, tomirlar punksiyasi, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, suvsizlanish, diuretiklar va vazodilatatorlarni qabul qilish kabi sabablardir. Sinkope paytida ko'ngil aynishi, qusish, qorin og'rig'i, terlash, rangparlik, yurak tez urishi va bosh aylanish belgilari paydo bo'lishi mumkin va bu holat yoshlarda ko'proq uchraydi. Bemor hushini yo'qotganidan so'ng qisqa muddatli (15 soniyagacha) tonik-klonik talvasalar paydo bo'ladi. Lekin epilepsiya xurujida bo'lgani kabi, aura, bosh og'rig'i, sfinkterlar bo'shishi kabi belgilar kuzatilmaydi va hushni yo'qotish davomiyligi 30 soniyadan oshmaydi [4].

Neuromediator sinkope - Valsalva manyovrlarini bajarganda, siyish paytida, defekatsiya paytida, yo'talganda, visseral og'riqda yoki og'ir yuk ko'tarish kabi holatlarda yuzaga kelganda - situatsion sinkope deb ataladi. Vazovagal hushdan ketish mexanizmi Betsold-Yarish refleksi bilan izohlanadi, bu pastki va yuqori kovak venalaridagi qon yurak o'ng bo'lmasiga qaytishining pasayishi, bu esa o'z navbatida qorinchalarning yetarli darajadagi qon bilan to'lmashligiga va yurakning kuchli qisqarishiga olib keladi. Bu asosan yurak chap qorinchasining pastki lateral devorida, shuningdek bo'lmalarda va o'pka arteriyasida joylashgan mexanoretseptorlar (C-tolalar) ta'siri ostida sodir bo'ladi va tormozlovchi retseptorlarning faolligi va keyinchalik parasimpatik giperaktivlik tufayli gipotenziya va paradoksal bradikardiya bilan namoyon bo'ladi [5].

Ortostatik gipotenziya - sistolik va/yoki diastolik qon bosimining ortostatik holatni qabul qilgandan so'ng 3 daqiqa ichida kamida 20 mm simob ustuniga kamayishi sababli bosh aylanishi yoki hushdan ketish bilan namoyon bo'ladi. Bunday holatlar keksa odamlarda tez-tez uchraydi (55% gacha). Natijada funksional buzilishlar, bosh miya jarohatlari, suyak sinish holatlari, turli darajalardagi yumshoq to'qimalarning lat yeyishi kabi holatlar kuzatiladi. Ovqatdan keyingi gipotenziya keksa odamlarda hushdan ketishning keng tarqalgan sababi bo'lib, bunday holat qariyalarda 67% gacha kuzatilishi mumkin. Bu sistolik qon bosimining ovqatdan istemol qilgandan keyin 2 soat ichida kamida 20 mm simob ustuniga pasayishi oqibatida yoki sistolik bosimning mutlaq qiymati 90 mm simob ustunidan pasayishi (sistolik qon bosimi kamida 100 mm simob ustuni bo'lgan odamlarda) sababli yuzaga keladi. Buning asosiy sababi qariyalarda periferik vazokonstriksiyaning yetarli emasligi va yurak qisqarishlar sonining

yetarli darajada oshmasligi va simpatik disfunktsiyadan kelib chiqadi. Vazodilatatorlar, oziq-ovqat yoki atrof-muhitning yuqori harorati va yuqori uglevodli dietalar yuqoridagi holatlarning asosiy omilidir [6].

Nevrologik sinkope. Nevrologik sabablar turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, bosh miya tomirlari kasalliklari, vegetativ disfunktsiya va o'mrov osti arteriyasining og'irlash ("steal") sindromlari shular jumlasidandir. Bosh miya qon tomirlaridagi fokal nevrologik kasalliklar, vertebrobazilar tranzitor ishemik insult va migrenoz holatlar (vazospazm yoki vazovagal refleks bilan) sinkope sifatida namoyon bo'lishi mumkin. O'mrov osti arteriyasi og'irlash ("steal") sindromi populyatsiyaning 6,4% insonlarida uchraydi. Bu chap yoki o'ng o'mrov osti arteriyasining proksimal qismida stenoz borligi sababli bu ikkala tomirni birlashtirib turuvchi umurtqa arteriyasi (a. vertebralis)da retrograd oqim yuzaga keladi. Bu asosan chap o'mrov osti arteriyasida sodir bo'ladi. Bunday bemorlarda qo'lda bajariladigan mashqlar paytida bosh aylanishi, paresteziya va hushidan ketish va tranzitor ishemik ataka kabi nevrologik alomatlar paydo bo'ladi [7].

Kardiogen sinkope. Yurakning organik kasalliklari yoki yurak haydash fraksiyasining pasayishiga olib keladigan holatlar, masalan, aortal stenoz, obstruktiv gipertrofik kardiomiopatiya, koronar arteriya kasalliklari, yurak yetishmovchiligi, aortaning qavatlanuvchi anevrizmasi, yurak tamponadasi, klapan protezi trombozi, yurak o'smalari, o'pka gipertenziyasi, o'pka arteriyasi tromboemboliyasi, bradiarimiyalar, taxiaritmiyalari buning asosiy sabablari hisoblanadi. Oilaviy anamnezida irsiy kanalopatiyalar (Brugada sindromi)ning bo'lishi hushdan ketish va to'satdan yurak o'limi sababi uchun yetarli asosdir. Davolash kardiogen sinkopening sababiga bog'liq bo'lib, yurak kasalliklarida tizimli ravishda olib boriladi. Agar bemorda bradiaritmia bo'lsa, yurak elektrokardiostimulyatori implantatsiyasi, taxiaritmia bo'lsa radiochastotali ablatsiya yoki antiaritmik vositalardan foydalanish, kriptogen qorinchalar taxikardiyasida kardioverter defibrillator implantatsiyaga qaratilgan. Bunday zamonaviy davolash chora tadbirlari sinkopal holatlarni oldini oladi, bemor hayot sifatini yaxshilaydi va to'satdan o'lim ko'rsatkichini sezilarli pasaytiradi [8].

Zamonaviy tibbiyot kundan kunga rivojlanayotgan bir davrda sinkopal holatlarning yana bir qator sabablari o'rganila boshlandi. Bularning orasida paradoksal emboliyalari hozirgi kunda dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Xo'sh paradoksal emboliya nima?

Paradoksal emboliya - o'tkir arterial okklyuziyaning kam uchraydigan sabablaridan biri hisoblanadi. Paradoksal emboliya, yurak ichi nuqsonlari (shuntlar) orqali tromb yoki har qanday embolning yurakning venoz qismdan katta qon aylanish sistemasining turli qismlariga o'tganda paydo bo'ladi. Bemorlarda tromb yoki embolning qaysi tomirni zararlaganiga qarab har xil turdagi simptomatika va shikoyatlar paydo bo'lishi mumkin. Bunday tomirlarga bosh miya tomirlari, yurak toj tomirlari, oshqozon-ichak trakti qon tomirlari, jigar, buyrak, taloq hamda qo'l va oyoqlarning arterial qon tomirlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, bosh miya tomirlari zararlanganda bemorlarda bosh miya qon aylanishining buzilishlari, tranzitor ishemik ataka, gemiparez va gemiplegiya, koronar tomirlar zararlanganda ko'krak qafasida kuchli og'riq, umuman olganda o'tkir koronar sindromida kuzatiladigan belgilar namoyon bo'ladi. Qo'l va

oyoqlarning arterial tomirlari zararlangan, qo'l oyoqning uvushishi, sovqotishi va og'ir holatlarda trofik yaralar hosil bo'ladi. Emboliya odatda tromb shaklida bo'ladi, lekin kamdan kam holatlarda to'qima yoki yog' bo'lakchasi, havo pufakchasi, amniotik suyuqlik yoki o'simta zarrasi ham bo'lishi mumkin. Paradoksal emboliyani davolash emboliyaning joylashishiga va bemorning umumiy ahvoriga qarab medikamentoz va/yoki jarrohlik usulida olib boriladi. Paradoksal emboliya klinik ko'rinishlarining uchrash darajasi quyidagicha: bosh miya (40%), periferik (50%), koronar (8%), buyrak (1%) va taloq (1%) ishemiyasi yoki infarkti [14].

Etiologiyasi. Paradoksal emboliya etiologiyasi venoz tromboz va yurakda o'ngdan chapga qon oqimini keltirib chiqaradigan omillar bilan bog'liq. Quyidagi holatlar chuqur venalar trombozi va embollar rivojlanish xavfini oshiradi: antitrombin III defitsiti, C va S oqsillari yetishmovchiligi, protrombin mutatsiyasi va disfibrirogenemiya, rak kasalliklari, qorin va ko'krak sohasidagi jarrohlik aralashuvlari, travmatologik-ortopedik va siydik-tanosil kasalliklaridagi jarrohlik aralashuvlar va travmalar.

Chuqur venalar trombozi 50% dan ortiq hollarda yashirin tarzda namoyon bo'ladi. Venoz tromboz travmatologik-ortopedik jarrohlik aralashuvlarning 50% dan ko'prog'ida va qorin hamda torakal jarrohlik aralashuvi o'tkazgan bemorlarning 20% dan ko'prog'ida paydo bo'lishi mumkin. [14]. Yurak o'ng kameralarini bevosita chap kameralariga bog'laydigan har qanday shunt paradoksal emboliyaga sabab bo'ladi. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin. Ochiq oval oyna, bo'lmachalararo to'siq nuqsoni, o'pka arteriovenoz malformatsiyasi, qorinchalararo to'siq nuqsoni, Ebshteyn anomaliyasi, ochiq arterial yo'lak va h.k.

O'pka yurak reanimatsiya ham paradoksal emboliyani keltirib chiqarishi mumkin. Buning sababi esa yurak massaji paytida o'ng bo'lmachada bosimning keskin ortishi hisobiga qon oqimini o'ngdan chapga o'zgarishidir [15].

Ochiq oval oyna (OOO) - normada birlamchi va ikkilamchi bo'lmachalararo to'siq orasidan chapdan o'ngga qon oqimi bo'lib turadi. Lekin o'ngdan chapga bo'ladigan qon oqimi kriptogen insult xavfining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [9].

Valsalva manyovralarini bajarganda, yo'talganda, o'tirib-turganda, kuchanganda, uzoq yig'laganda va defekatsiya paytida o'ng bo'lmachadagi bosim vaqtincha oshishi mumkin, bu esa shuntning vaqtincha yopilishiga va potentsial trombnig katta qon aylanish doirasiga o'tishiga olib keladi [10].

Bo'lmachalararo to'siq nuqsoni - bu tug'ma nuqson bo'lib, deffekt hajmi va uning joylashuvi jihatidan turlicha bo'lib, uning klinik ko'rinishlari bo'lmachalar taxiaritmiyasidan to nafas siqilishigacha



bo'lishi mumkin. Bo'lmachalararo to'siq nuqsonida qon oqimi odatda chapdan o'ngga bo'ladi. Gemodinamikaning qisqa muddatli o'zgarishi teskari qon oqimiga olib kelishi mumkin. Paradoksal emboliyalarning sababi 14% holatlarda bo'lmachalararo to'siq nuqsoni bilan bog'liq [11].

Qorinchalararo to'siq nuqsoni - bu tug'ma nuqson bo'lib, deffektning joylashuvi va uning kattaligiga qarab turlicha bo'ladi. Qorinchalararo to'siq nuqsonida qon odatda chapdan o'ngga qarab oqadi, ammo yurakning o'ng bo'limlarida bosimni oshiradigan ba'zi holatlar, masalan, Eyzemenger sindromi va o'pka gipertenziyasida paradoksal emboliyaga sabab bo'luvchi teskari qon oqimi yuzaga kelishi mumkin.

O'pka arteriovenoz malformatsiyasi - bu odatda nasldan naslga o'tadigan nuqson bo'lib, embrional davrda o'pka arteriyasi va chap bo'lmachaga quyiladigan o'pka venalari o'rtasidagi patologik bog'lanish sodir bo'ladi. Bu esa yurakning venoz qismidan chap qismiga doimiy qon oqimiga olib keladi. Anamnezida irsiy gemorragik teleangiektaziya bo'lgan bemorlarda o'pka arteriovenoz malformatsiyasi va undan keyingi paradoksal emboliya rivojlanish xavfi yuqori [12].

Epidemiologiyasi. Miya qon aylanishining buzilishi butun dunyo bo'ylab o'limning ikkinchi eng keng tarqalgan sababi va paradoksal emboliyaning eng keng tarqalgan va muhim natijasidir. Ishemik insultlarning 45% holatlarda, bo'lmachalar fibrillatsiyasi kabi aniqlanadigan sabablari yo'q va **kriptogen insult** deb ataladi. Paradoksal emboliyaning tarqalishini isbotlangan yoki yaqinlashib kelayotgan embolik asoratlarni tashxislashda qiyinchiliklar tufayli aniqlash qiyin. OOO aholining 30 foizida aniqlanishi mumkin va tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, OOO bilan og'rikan bemorlarda yillik kriptogen va takroriy insult xavfi mos ravishda 0,1% va 1% ni tashkil qiladi. Bo'lmachalararo to'siq nuqsoni ayollarda 2-3 baravar ko'p uchraydi va kattalardagi tug'ma yurak nuqsonlarining 30% dan ortig'iga sabab bo'ladi. Paradoksal emboliya ishemik insult bilan og'rikan barcha bemorlarda aniq sababsiz shubha qilinishi kerak [10].

Patofiziologiyasi. Paradoksal emboliya chuqur venoz qon aylanish tizimidagi trombnig yurak ichidagi shunt yoki o'pka arteriyasining venoz malformatsiyasi orqali katta qon aylanish doirasiga o'tganda paydo bo'lishi mumkin. Chuqur venalar trombozi paradoksal emboliya uchun xavf omili hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kriptogen insult toj tomirlar tromboziga nisbatan 5 baravar ko'proq uchraydi [13]. Paradoksal emboliyaning patofiziologik mexanizmi haqiqatan ham farq qiladi. OOO sharoitida yurakning o'ng tomonidagi bosimning har qanday doimiy ko'tarilishi paradoksal emboliya xavfini oshirishi mumkin.



Anamnez va fizikal tekshiruvlar. Paradoksal emboliyani aniqlash qiyin bo'lishi mumkin va u sezilmasdan o'tishi ham mumkin. Shifokorlar chuqur venalar trombozi bilan og'rikan bemorlarda va intrakardial shunt ma'lum yoki shubha qilinganida paradoksal emboliyadan shubha qilishlari kerak. Mukammal va malakali anamnez hamda fizik tekshiruvlar juda muhim ahamiyatga ega. **Anamnezidagi muhim masalalar:**

-Hodisaga olib keladigan omillarni baholash (masalan, yo'tal yoki zo'riqish)

-Chuqur venalar trombozi, gipertoniya kasalligi, yurak qon-tomir kasalliklari, qandli diabet, giperxolesterinemiya, bo'lmachalar fibrillatsiyasi, insult va hushidan ketish holatlari.

-Migren anamnezi (migren yurak nuqsonlari bilan og'rikan bemorlarning 50 foizida uchraydi).

-Tug'ma yurak nuqsonlari, yurakning strukturaviy nuqsonlari yoki anamnezidagi ochiq oval teshik.

-Oilaviy anamnezva ijtimoiy anamnez (tamaki chekishi, spirtli ichimliklar iste'mol qilishi)

Diagnostikasi.

1. Aritmiya yoki bo'lmachalar fibrillatsiyani baholash uchun EKG.

2. Yurak ichidagi shuntlar, tug'ma yurak nuqsonlarini va tromboz mavjudligini baholash uchun rangli dopplerografiya bilan

transtorakal exokardiografiya paytida intrakardial shuntni ko'rish va tashxislashda yordam beradigan kontrast ham berilishi mumkin. Biroq, OOO ni aniq tashxislash uchun kontrast modda Valsalva operatsiyasi oxirida, shunt vaqtincha chapdan o'ngga o'tganda kiritilishi kerak.

3. Transezofagial exokardiografiya – maxsus zond yordamida qizilo'ngach orqali yurakning orqa devoridan ultratovush nurlari yordamida yurak tug'ma nuqsonlariga aniq tashxis qo'yishda yordam beradigan zamonaviy tekshiruv usuli hisoblanadi.

4. Bubble test - bu noinvaziv test bo'lib, qonning yurak orqali qanday oqishini yurakka yuborilgan pufakchalar harakatiga asoslanib kuzatishdir. Bu amaliyot yurak exokardiografiyasining bir qismi sifatida o'tkaziladi.

5. Ventrikulografiya – bu rentgen nurlari ostida yurak qorinchasiga kontrast modda yuborish orqali qon oqimi harakatining yo'nalishini ko'rsatadi.

6. Pulsoksimetriya - yuqori sezuvchanlik va o'ziga xoslik bilan ishlatilishi mumkin bo'lgan oddiy intrakardiyal shunt skrining vositasi. Bemor Valsalva manyovrlarini bajarayotganda, chapdan o'ngga shunt vaqtincha o'ngdan chapga shuntga aylanadi, bu esa pulsoksimetr tomonidan qayd etilgan arterial kislorod bilan to'yinganlikning vaqtincha pasayishiga olib keladi.

7. Koagulogramma analizlari, shu jumladan C va S oqsil antigeni darajasi testlari.

8. O'pka emboliyasiga shubha qilinganida D-dimer darajasi

9. Chuqur venalar trombozini baholash uchun ultratovush-doppler tekshiruv

10. O'pka emboliyasini baholash uchun ko'krak qafasining kompyuter angiografiyasi.

11. Intrakranial qon ketishini baholash uchun miyaning kontrastli bo'lmagan kompyuter tomografiyasi.

12. Oyoq-qo'llar, buyraklar yoki ichakning o'tkir okklyuziyasi uchun kompyuter angiografiyasi yoki MRT.

13. Boshqa metabolik sabablarni baholash uchun ko'rsatmalar bo'yicha qo'shimcha qon va siydik biokimyoviy testlari.

Davolash. Paradoksal emboliyani davolash ham medikamentoz, ham jarrohlik yondashuvlarga asoslangan. Davolash usullari uchta asosiy yondashuvga bo'linadi.

Birinchisi, yurak ichi shuntini bartaraf etish (jarrohlik yoki teri orqali kirish).

Ikkinchisi, venoz trombozning takroriy epizodlarini oldini olish uchun dori-darmonlar berish. Uchinchisi, tibbiy va jarrohlik yondashuvlarining kombinatsiyasi.

Muayyan usulni va uning o'ziga xos rejasini tanlash insultning qaytalanish xavfiga, antitrombotik terapiya va jarrohlik o'rtasidagi umr bo'yi foyda/xavf nisbatiga va har bir aralashuv narxiga bog'liq. Jarrohlik yondashuvi intrakardial shuntlar va o'pka arteriovenoz malformatsiyasi okklyuziyasini o'z ichiga oladi. Dori terapiyasi antitrombotik terapiyani

o'z ichiga oladi, unga monoterapiya sifatida aspirin yoki klopidogrel yoki trombotik asoratlarni oldini olish uchun varfarin bilan birgalikda beriladi.

Dastlabki davolash har doim antikoagulyantlardir. Agar bemorda intrakardiyal shunt bo'lsa, u teri orqali yoki ochiq yurak jarrohligi orqali yopilishi mumkin. Bugungi kunda yurak shuntlarini teri orqali minimal asoratlarni yopish uchun ko'plab turdagi qurilmalar mavjud.

Tromboliz ko'pincha bemor gemodinamik jihatdan beqaror bo'lgan o'tkir holatlarda qo'llaniladi. Chuqur venalar trombozi ham, o'pka emboliyasi ham antikoagulyantlar bilan uzoq muddatli davolanishni talab qiladi. Ba'zi bemorlarga umrbod antikoagulyant terapiya kerak bo'lishi mumkin.

Differensial tashxis: Chuqur tomirlar trombozi, septik flebit, tomirlarning varikoz kasalligi va infeksiyon endokardit, bo'lmachalar fibrillatsiyasi.

Prognoz. Paradoksal emboliya, agar u asoratlangan bo'lmasa, yaxshi prognozga ega. O'pka arteriyasi tromboemboliyasi va paradoksal emboliya bilan og'rigan bemorlarda emboliya hajmi va qaysi organdagi joylashuviga qarab kasallanish va o'lim darajasi oshadi. Paradoksal emboliya xavfi bo'lganda o'lim ko'rsatkichi 30 kundan keyin 18,4% deb taxmin qilingan. Paradoksal emboliyadan keyingi prognoz zararlangan organga va shikastlanish darajasiga bog'liq. Markaziy nerv sistemasi zararlanishi bo'lgan bemorlarning ahvoli odatda yomonlashadi. Mezenterik ishemiya yoki sovuq oyoq bilan og'riganlarni jarrohlik yo'li bilan qutqarish mumkin. Lekin, buyrak infarkti odatda hech qachon tiklanmaydi.

Asoralar. Gemiplegiya, talvasalar, afaziya, zaiflik, nutqning buzilishi, o'tkir miokard infarkti o'g'ir aritmiyalar, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, oyoq-qo'l amputatsiyasi va o'lim.

Operatsiyadan keyingi parvarish va reabilitatsiya. Paradoksal emboliya bilan og'rigan bemorlarning aksariyati odatda kasalxonaga yotqizilishi va kasalxonada uzoq vaqt davolanishni talab qiladi. Ko'pgina bemorlarda chuqur venalar trombozi yoki o'pka arteriyasi tromboemboliyasi tasdiqlangan bo'lsa, olti oy davomida antikoagulyant terapiya o'tkaziladi. Ushbu holatlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun XNN (xalqaro normalangan nisbat) diqqat bilan kuzatib borish kerak.

Xulosa. Paradoksal emboliya kam uchraydigan kasallik bo'lib, kasallanish va o'lim darajasi yuqori hisoblanadi. Ko'p mutaxassisli guruh turli xil qarashlar tufayli ushbu kasallik bilan yaxshi kurashadi. Paradoksal emboliya bilan og'rigan bemorlarda salbiy natijalarni tashxislash, davolash va minimallashtirish uchun turli sohalar jamoa a'zolarining hamkorligiga tayanish juda muhimdir. Masalan, intrakardiyal shuntni aniqlash uchun yaxshi ultratovush ko'nikmalari zarur. Farmatsevti jalb qilish antikoagulyatsiyani to'g'ri ta'minlash va tromblarni oldini olish uchun muhimdir. Tibbiyot xodimlari antikoagulyantlarning yon ta'sirini aniqlashda faol bo'lishlari, shuningdek, o'z vaqtida nevrologik tekshiruvlar o'tkazishlari kerak. Jamoa eng yaxshi natijalarga erishish uchun muloqot qilishi va birgalikda ishlashi kerak.

References / Список литературы / Iqtiboslar

1. Brignole M., Menozzi C., Bartoletti A., Giada F., Lagi A., Ungar A., et al.. (2006). A new management of syncope: prospective systematic guideline-based evaluation of patients referred urgently to general hospitals. *Eur. Heart J.* 27, 76–82. 10.1093/eurheartj/ehi647 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]
2. Moya A., Sutton R., Ammirati F., Blanc J. J., Brignole M., Dahm J. B., et al.. (2009). Guidelines for the diagnosis and management of syncope. *Eur. Heart J.* 30, 2631–2671. 10.1093/eurheartj/ehp298 [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]
3. Sheldon R., Rose S., Connolly S., Ritchie D., Koshman M. L., Frenneaux M. (2006). Diagnostic criteria for vasovagal syncope based on a quantitative history. *Eur. Heart J.* 27, 344–350. 10.1093/eurheartj/ehi584 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]
4. Kapoor W. N. (2002). Current evaluation and management of syncope. *Circulation* 106, 1606–1609. 10.1161/01.CIR.0000031168.96232.BA [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]
5. Medow M. S., Stewart J. M., Sanyal S., Mumtaz A., Sica D., Frishman W. H. (2008). Pathophysiology, diagnosis and treatment of orthostatic hypotension and vasovagal syncope. *Cardiol. Rev.* 16, 4–20. 10.1097/CRD.0b013e31815c8032 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]
6. Luciano G. L., Brennan M. J., Rothberg M. B. (2010). Postprandial hypotension. *Am. J. Med.* 123, e1–e6. 10.1016/j.amjmed.2009.06.026 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]
7. Osiro S., Zurada A., Gielecki J., Shoja M. M., Tubbs R. S., Loukas M. (2012). A review of subclavian steal syndrome with clinical correlation. *Med. Sci. Monit.* 18, RA57–RA63. 10.12659/MSM.882721 [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar] [Ref list]

8. Rosanio S., Schwarz E. R., Ware D. L., Vitarelli A. (2013). Syncope in adults: systematic review and proposal of a diagnostic and therapeutic algorithm. *Int. J. Cardiol.* 162, 149–157. 10.1016/j.ijcard.2011.11.021 [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)] [[Ref list](#)]
9. Maron BA, Shekar PS, Goldhaber SZ. Paradoxical embolism. *Circulation.* 2010 Nov 09;122(19):1968-72. [[PubMed](#)] [[Reference list](#)]
10. Windecker S, Stortecky S, Meier B. Paradoxical embolism. *J Am Coll Cardiol.* 2014 Jul 29;64(4):403-15. [[PubMed](#)] [[Reference list](#)]
11. Bannan A, Shen R, Silvestry FE, Herrmann HC. Characteristics of adult patients with atrial septal defects presenting with paradoxical embolism. *Catheter Cardiovasc Interv.* 2009 Dec 01;74(7):1066-9. [[PubMed](#)] [[Reference list](#)]
12. Kjeldsen AD, Oxhøj H, Andersen PE, Green A, Vase P. Prevalence of pulmonary arteriovenous malformations (PAVMs) and occurrence of neurological symptoms in patients with hereditary haemorrhagic telangiectasia (HHT). *J Intern Med.* 2000 Sep;248(3):255-62. [[PubMed](#)] [[Reference list](#)]
13. Osgood M, Budman E, Carandang R, Goddeau RP, Henninger N. Prevalence of Pelvic Vein Pathology in Patients with Cryptogenic Stroke and Patent Foramen Ovale Undergoing MRV Pelvis. *Cerebrovasc Dis.* 2015;39(3-4):216-23. [[PubMed](#)] [[Reference list](#)]
14. (Meacham RR 3rd, Headley AS, Bronze MS, Lewis JB, Rester MM. Impending paradoxical embolism. *Arch Intern Med.* 1998 Mar 9. 158 (5): 438-48.)
15. Kim SJ, Kim Y, Hwang So Cardiopulmonary resuscitation may cause paradoxal embolism. 2020 Aug 38:(8).

ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 5, НОМЕР 2

JOURNAL OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH

VOLUME 5, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000